



## 2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi

**1218,8** mlrd. soʻm

Yirik qurilish  
tashkilotlari ulushi

**4,2** %

Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar ulushi

**79,4** %

Norasmiy sektor ulushi

**16,4** %

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida Sirdaryo viloyatida jami **1218,8** mlrd. soʻm **qurilish ishlari** bajarilgan boʻlib, oʻsish surʼati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **122,6** % ni tashkil qildi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **50,7** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **173,5** % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari **967,6** mlrd. soʻmni yoki jami qurilish ishlarining **79,4** % ini tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **120,4** % ni tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **200,5** mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati **124,0** % ni tashkil qildi.

### Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi-50,7 mlrd. soʻm

oʻsish surʼati-173,5 %

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar

hajmi-967,6 mlrd. soʻm


oʻsish surʼati-120,4 %

### Norasmiy sektor

hajmi-200,5 mlrd. soʻm

oʻsish surʼati-124,0 %

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 72,9 % ni tashkil etdi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 16,9 % ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda esa 10,2 % to'g'ri keldi.




**Qurilish ishlarining faoliyat turlari  
bo'yicha tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)



2019-yil  
yanvar-oktyabr


- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



2018-yil  
yanvar-oktyabr

**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlar tarkibi**  
(mlrd. so'm)

|                          | Jami qurilish ishlari | shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo'yicha |                                    |                 |
|--------------------------|-----------------------|---|------------------------------------|-----------------|
|                          |                       | yirik pudrat tashkilotlari                      | kichik korxonalar va mikrofirmalar | norasmiy sektor |
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>1218,8</b>         | <b>50,7</b>                                     | <b>967,6</b>                       | <b>200,5</b>    |
| <i>shaharlar</i>         |                       |   |                                    |                 |
| Guliston                 | 376,8                 | 11,0  | 312,8                              | 53,0            |
| Shirin                   | 64,3                  | 1,0   | 60,7                               | 2,6             |
| Yangiyer                 | 109,1                 | 3,8   | 91,5                               | 13,8            |
| <i>tumanlar</i>          |                       |   |                                    |                 |
| Boyovut                  | 99,1                  | 0,3   | 80,8                               | 18,0            |
| Guliston                 | 55,9                  | -   | 45,3                               | 10,6            |
| Mirzaobod                | 112,1                 | 6,0   | 91,3                               | 14,8            |
| Oqoltin                  | 89,6                  | 8,3   | 70,9                               | 10,4            |
| Sardoba                  | 27,1                  | -   | 14,9                               | 12,2            |
| Sayxunobod               | 55,4                  | 3,8   | 41,2                               | 10,4            |
| Sirdaryo                 | 155,7                 | 0,1   | 110,9                              | 44,7            |
| Xovos                    | 73,7                  | 16,4  | 47,3                               | 10,0            |




Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o'sish sur'ati 115,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo tumanida 134,9 %, Mirzaobod tumanida 128,3 %, Yangiyer shahrida 124,6 %, Boyovut tumanida 123,8 % va Oqoltin tumanida 132,8 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Xovos tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 142,7 % ni tashkil qildi.



## Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)



### Yirik qurilish tashkilotlari Kichik korxonalar va mikrofirmalar Norasmiy sektor

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 79,4 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,4 % ni tashkil qildi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan jami qurilish ishlaridagi ulushi 4,2 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 173,5 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 16,4 % tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 124,0 % ni tashkil qildi.




## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)

### 2018-yil yanvar-oktyabr



### 2019-yil yanvar-oktyabr



 Davlat mulkchilik shakli

 Nodavlat mulkchilik shakli


Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 81,7 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,7 % ni tashkil qildi va 2018-yil yanvar-oktyabriga nisbatan 1,8 % bandga koʻpaydi.




Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 1137,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 93,3 % ni (2018-yil yanvar-oktyabriga nisbatan 1,8 % bandga kamayish) tashkil qildi.

## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 30,9 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 12,8 %, Mirzaobod tumanida 9,2 % ga, Yangiyer shahriga 8,9 % va Boyovut tumaniga 8,2 % dan to'g'ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi.

Aloqa telefoni: (67) 225-02-37  
(71) 230-86-27